

**YUQTK BILAN OG'RIGAN BEMORLAR UCHUN INDIVIDUAL  
PARVARISHLASH REJALARINI ISHLAB CHIQISH: TURLI YOSHDAGI VA  
TURLI DARAJADAGI XAVF OSTIDAGI BEMORLAR UCHUN  
IXTISOSLASHTIRILGAN PARVARISH REJALARINI YARATISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629742>

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich  
Yarashova Ra'no Muzaffarovna**

*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti, Tibbiyot fakulteti*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada yurak-qon tomir kasalliklari (ЮКТК) bilan og'rigan bemorlar uchun parvarishlashning individual yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Har bir bemorning yoshi, sog'lig'i, kasallik bosqichi, psixososial holati, xavf darajasi va klinik tavsiyalar asosida parvarish rejasi tuzilishi kerakligi asoslanadi. Tadqiqotda turli yoshdag'i (bolalar, o'smirlar, keksalar) va turli darajadagi xavf guruhlariga mansub bemorlar uchun individual va ixtisoslashtirilgan parvarish rejalarining modellarini yaratish zarurligi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro klinik tajriba va zamonaviy psixososial yondashuvlar asosida ilg'or metodlar taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar**

ЮКТК, individual parvarish, xavf guruhlari, klinik yondashuv, ijtimoiy reabilitatsiya, profilaktika.

**РАЗРАБОТКА ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПЛАНОВ УХОДА ЗА  
ПАЦИЕНТАМИ С ССЗ: СОЗДАНИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ СХЕМ  
УХОДА ДЛЯ ПАЦИЕНТОВ РАЗНОГО ВОЗРАСТА И РАЗНОГО УРОВНЯ  
РИСКА**

**Кенжав Ёдгор Маматкулович,  
Ярашова Рањно Музффаровна**

*Термезский университет экономики и сервиса,  
Медицинский факультет*

**Аннотация**

В данной статье научно обоснованы индивидуальные подходы к уходу за пациентами с сердечно-сосудистыми заболеваниями (ССЗ). Подчеркивается необходимость разработки схем ухода на основе возраста, состояния здоровья,

стадии заболевания, психосоциального состояния, уровня риска и клинических рекомендаций для каждого пациента. Исследование показывает необходимость создания моделей специализированного ухода для различных возрастных и рискованных групп пациентов (дети, подростки, пожилые). Также в статье предлагаются передовые методы, основанные на международной клинической практике и современных психосоциальных подходах.

### **Ключевые слова**

ССЗ, индивидуальный уход, группы риска, клинический подход, социальная реабилитация, профилактика.

## **DEVELOPING INDIVIDUAL CARE PLANS FOR PATIENTS WITH CVD: DESIGNING SPECIALIZED CARE MODELS FOR PATIENTS OF DIFFERENT AGES AND RISK LEVELS**

**Kenjayev Yodgor Mamatqulovich,  
Yarashova Ra'no Muzaffarovna**

*Termez University of Economics and Service,  
Faculty of Medicine*

### **Abstract**

This article scientifically analyzes individualized approaches to the care of patients with cardiovascular diseases (CVD). It emphasizes the necessity of developing patient care plans based on age, health status, disease stage, psychosocial condition, risk level, and clinical recommendations. The study highlights the need to create specialized care models for patients of different age groups (children, adolescents, elderly) and various risk levels. Additionally, the article presents advanced methods grounded in international clinical experience and contemporary psychosocial approaches.

### **Keywords**

CVD, individualized care, risk groups, clinical approach, social rehabilitation, prevention.

### **Kirish**

Yurak-qon tomir kasalliklari (ЮҚТК) bugungi kunda dunyo bo'yicha o'limga olib keluvchi eng keng tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili taxminan 17,9 million kishi ЮҚТК tufayli vafot etadi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham ЮҚТК bilan og'rigan bemorlar soni barqaror o'sishda davom etmoqda. Ushbu kasalliklar nafaqat

biologik, balki psixosotsial, ijtimoiy va psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Yurak ishemik kasalligi, arterial gipertenziya, yurak yetishmovchiligi, aritmiya, insult va boshqa IOKTK turlari bemorlar hayot sifatini keskin pasaytiradi. Ayniqsa, bu holat turli yoshdagi va turli klinik xavf guruhlarida alohida yondashuvni talab qiladi. Har bir bemor uchun umumiy protokoldan farqli yondashuv - ya'ni individuallashtirilgan parvarish rejasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan shunday ixtisoslashtirilgan yondashuvlarning ilmiy asoslari, amaliy tavsiyalari va klinik samaradorligi yoritiladi.

**Mavzuning dolzarbliji;** Yurak-qon tomir kasalliklari (IOKTK) dunyo miqyosida sog'liqni saqlash sohasida eng ko'p uchraydigan va o'limga olib keluvchi kasalliklar sirasiga kiradi. So'nggi yillarda aholi orasida turmush tarzi o'zgarishi, ruhiy-emosional zo'riqishlar, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning kamayishi, surunkali stress va boshqa xavf omillari ushbu kasalliklarning tez-tez uchrashiga sabab bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili 17 milliondan ortiq odam IOKTK bilan bog'liq sabablar tufayli hayotdan ko'z yumadi, bu esa umumiy o'lim holatlarining uchdan bir qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimi uchun ham IOKTK bilan bog'liq muammolar dolzarb hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda bu kasalliklar bilan og'riganlar soni yildan-yilga oshmoqda, ayniqsa, yoshi 45 yoshdan oshgan aholining katta qismi yurak yetishmovchiligi, arterial gipertenziya yoki insult bilan kurashmoqda. Biroq ushbu kasalliklarning kechishini faqat dorivor terapiya orqali boshqarishning o'zi yetarli emas. Klinik tajriba shuni ko'rsatadiki, bemorning umumiy sog'lig'i, ruhiy holati, ijtimoiy o'rni, oila va jamiyatdan ko'rayotgan yordam darajasi - bularning barchasi kasallikning borishi va davolanish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois IOKTK bilan og'rigan har bir bemor uchun individuallashtirilgan parvarish rejasi ishlab chiqish va uni real hayotda qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv kasallikning erta bosqichlarida kasallikni aniqlash, dori vositalarini to'g'ri va uzlusiz qabul qilishni ta'minlash, asoratlarni oldini olish, bemorning turmush tarzini sog'lomlashtirish, shuningdek, uning hayot sifatini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbliji, shuningdek, sog'liqni saqlash xizmatlari individual yondashuv va profilaktik tibbiyotga asoslangan yangi modellarni joriy etishga intilayotgan bir davrda, IOKTK bilan og'rigan bemorlar uchun yosh, klinik holat va xavf darajasiga moslashtirilgan ixtisoslashtirilgan parvarish rejalari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish bilan bog'liq. Bu esa nafaqat bemorning jismoniy holatini tiklashga, balki ijtimoiy integratsiyasiga, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga va jamiyatga foydali a'zo sifatida qayta integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

## Statistik va klinik tahlillar asosida yondashuv

Global ma'lumotlar: JSST (2023) hisobotiga ko'ra, IOKTK holatlari 30-79 yosh oralig'ida 1,28 milliard kishida uchraydi. Ulardan 46% kasallik mavjudligini bilmaydi.

60% hollarda kasallikning kuchayishiga noto'g'ri parvarish va stress omili sabab bo'lgan.

O'zbekistondagi vaziyat:

2023-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi statistikasi bo'yicha IOKTK bilan 2,8 million bemor qayd etilgan. 55% bemorlar muntazam reabilitatsiya va parvarish rejalaridan foydalana olmaydi. 70 yoshdan oshgan bemorlarning 68% i faqat simptomatik davo oladi, lekin profilaktik va psixososial yondashuvdan mosuvo.

Individual parvarish rejalarini ishlab chiqish zarurati

Har bir IOKTK bemori quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinishi kerak:

1. Yoshi: bola, o'smir, o'rta yosh, keksalik
2. Kasallik bosqichi: boshlang'ich, o'rta, og'ir
3. Jismoniy holati: harakatlanish chekllovleri, nogironlik darajasi
4. Psixologik holat: stress, xavotir, depressiya
5. Ijtimoiy holati: yolg'izlik, qarovsizlik, moddiy imkon

Shu mezonlarga qarab individual profil tuziladi va unga mos parvarish rejalarini ishlab chiqiladi.

Ixtisoslashtirilgan parvarish rejalarining modellari

Yosh guruhi	Xavf darajasi	Tavsiya etilgan parvarish shakli
0-18 yosh	Past-O'rta	Oilaviy nazorat, sog'lom turmush tarzi, o'yin terapiyasi
19-45 yosh	O'rta-Yuqori	Stressni kamaytirish, ish rejimiga moslashtirish, CBT
46-65 yosh	Yuqori	Kardiologik kuzatuv, reabilitatsion markaz, psixologik treninglar
66 yosh+	Juda yuqori	Uy sharoitida

		yordam, psixososial reabilitatsiya, dietik yondashuv
--	--	--

Tavsiyalar.Kardiolog va psixolog hamkorligi asosida parvarishlash rejasi ishlab chiqilishi kerak.Bemor va ularning oila a'zolariga ta'lif berish, sog'lom turmush tarziga o'rnatish lozim.Ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiya: nafaqaxo'rlar uyushmasi, xayriya fondlari, volontyorlar.Mobil ilovalar va elektron nazorat tizimlari orqali yurak faoliyatini monitoring qilish amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.Har bir klinik sharoitda shaxsiy parvarish kartasi yuritilishi lozim.

### Xulosa

Yurak-qon tomir kasalliklari (IOKTK) bilan og'rihan bemorlar sonining ortib borishi global va milliy sog'lijni saqlash tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Ushbu kasalliklar nafaqat o'lim ko'rsatkichlari yuqoriligi bilan, balki bemorning umr sifati va ijtimoiy faolligiga salbiy ta'siri bilan ham ajralib turadi. An'anaviy davo protokollarining o'zi ko'p hollarda yetarli natija bermaydi. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda individual yondashuvlar - har bir bemorning yoshi, klinik holati, psixososial muammolari, xavf darajasi va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda tuziladigan individuallashtirilgan parvarish rejalarini ishlab chiqish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.Tadqiqotda ko'rsatilganidek, bemorning klinik holatini baholash bilan bir qatorda, uning ruhiy-emotsional fonini, stress darajasini, ijtimoiy qo'llab-quvvatlov tarmog'ini o'rganish - yuqori sifatlari va samarali parvarish rejasini shakllantirishning asosiy shartidir. Bunday yondashuvlar yurak-qon tomir kasalliklarining og'irlashishini sekinlashtiradi, asoratlar xavfini kamaytiradi, dori vositalarining ta'sirini optimallashtiradi va bemorning sog'lom turmush tarziga qaytish imkoniyatini oshiradi.

Xususan, bolalar, o'smirlar, mehnatga layoqatli aholi va keksalar uchun alohida ixtisoslashtirilgan parvarish modellarini ishlab chiqish - nafaqat klinik jihatdan zarur, balki ijtimoiy jihatdan ham adolatli yondashuvdir. Aynan shu turdag'i rejalshtirish sog'lijni saqlashda resurslardan oqilona foydalanish, profilaktika choralarini kuchaytirish va reabilitatsiya xizmatlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida sog'lijni saqlash tizimida individual parvarish rejalarini yaratish bo'yicha yagona algoritm va klinik qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, bemorlarni psixososial jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash va jamiyatda

sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga xizmat qiladi. Shunday qilib, IOKTK bilan og'rigan bemorlar uchun ixtisoslashtirilgan individual parvarish rejalarini ishlab chiqish va joriy etish nafaqat klinik zarurat, balki dolzarb ijtimoiy va strategik masaladir. Ushbu yondashuv milliy sog'liqni saqlash tizimini innovatsion rivojlantirishga, aholining salomatligini yaxshilashga va kasallik yukini kamaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi SSV. Yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha milliy klinik protokollar. Toshkent, 2023.
2. World Health Organization. Cardiovascular diseases key facts. WHO, 2023.
3. American College of Cardiology. Guidelines for individualized care in cardiology. ACC, 2022.
4. Tursunov A., Karimova D. Kardiologiyada amaliy psixologiya. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
5. Mayo Clinic. Heart Disease and Mental Health, 2022.
6. Harvard Medical School. Mindfulness-based cardiac care, 2023.
7. European Society of Cardiology. ESC Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure, 2021.
8. Abdurahmonova S. Kasalliklar reabilitatsiyasi va parvarish usullari. Termiz, 2023.
9. National Institute on Aging. Care plans for elderly cardiac patients. NIA, 2021.
10. Chobanian A.V. Hypertension management in older adults: JNC 8 report, 2021.